Emro Science and Education
Open-access scientific journal
Journal homepage: https://journal.emro.uz
OPEN ACCESS

CONFERENCE PAPER OPEN ACCESS

Vol. 1 No. 2 (2024) · “Raqamli iqtisodiyot sharoitida moliyaning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari” mavzusidagi ilmiy-amaliy...

yondashuvlarni tushunish orqali korxonalar va siyosatchilar firmalarning samaradorligi va raqobatbardoshligini oshiradigan asosli qarorlar qabul qilishlari mumkin. Optimal firma hajmiga erishish tashkilotlarga iqtisodlar va miqyosdagi iqtisodsizliklar o‘rtasida muvozanatni saqlash, natijada ularning ishlab chiqarish samaradorligi va uzoq muddatli barqarorligini maksimal darajada oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.Milliy hisoblar(Stat.uz)
2.Lex.uz.
3.Ish bilan ta’minlash-Vikipediya.
4.Pindayk Robert. Mikroiqtisod: Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan/ Pindayk Robert, Rubinfeld Daniel. – T.; 2002.
5. E.Egamberdiev. Mikroiqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. T.: 2005 y.

IQTISODIYOTDA KORXONALARINING IQTISODIY BARQARORLIGINI TA’MINLASH

Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna
TDIU,“Mutaxassislik fanlari” kafedrasi o’qituvchisi
Omonillo Hayotbekovich Zokirjonov
Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti Andijon fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mamlakatda o’zaro bir birining ishlab chiqarish faoliyatiga bog’liq bo’lgan tarmoqlarning o’zaro bog’liqlikni (aloqani) tashkil etish bilan qo’shimcha qiymatning butun zanjiriga samarali ta’sir ko’rsata oladigan innovatsiyani alohida turini – “Yalpi innovatsion mahsulot” ni yaratish imkoniyati yuzaga keladi. Tarmoqlararo balans asosida tarmoqlarning o’zaro ta’sirini baholashni amalga oshirish mumkin. Shuningdek, ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonida band bo’lgan kadrlarning malakasini oshirish uchun zaruriy xarajatlarni kamaytirishga imkon yaratiladi. Tarmoqlararo kooperatsiya natijasida investitsiyalarni jalb etish shart-sharoitlari, investitsiyalarni faoliyat sohalari bo’yicha taqsimlash jarayoni yaxshilanadi, yuqori sifatli inson kapitali shakllantiriladi.

Tayanch so’zlar: Tarmoq, tarmoqlararo balans, Leontev modeli, yalpi innovatsion mahsulot, investitsiya multiplikatori.

O’zbekiston 2030 yilgacha bo’lgan davr ichida sanoati rivojlangan mamlakatlarga xos bo’lgan turmush darajasi standartlariga (hayot darajasiga) ega mamlakat darajasiga chiqish vazifasini o’z oldiga maqsad qilib quydi. Belgilangan maqsadga erishishdagi muvaffaqiyat ko’rsatkichlaridan biri aholi jon boshiga to’g’ri

Published: 28.03.2024
Cite this article: Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna, Omonillo Hayotbekovich Zokirjonov (2024). Iqtisodiyotda korxonalarining iqtisodiy barqarorligini ta’minlash. Emro Science and Education, 1(2). https://journal.emro.uz/public/maqola/261
© 2024 The Author(s). Published by Emro Science and Education. This is an open access article.

keladigan YaIMning o’sishi hisoblanadi, ushbu ko’rsatkich bugungi kunda aholining o’rtacha daromadi yuqori bo’lgan o’rtacha statistik mamlakat darajasiga teng bo’lib, 2030 yilda iste’molchilarning xarid pariteti, xalqaro dollar va joriy narx darajasi kabi ko’rsatkichlarni e’tiborga olgan holda hisoblanganda 10600 AQSH dollarni tashkil etishi belgilangan. Buning uchun esa, YaIMning yillik 8 foizga teng bo’lgan o’sish sur’atini ta’minlash zarur. So’nggi 10 yillik makroiqtisodiy ko’rsatkichlarning joriy tahliliga ko’ra mamlakat yalpi ichki mahsulotining o’rtacha yillik o’sish sur’ati 108 foizga teng. Yalpi ichki mahsulot tarkibida sanoat alohida o’ringa ega bo’lgan holda, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlovchi asosiy drayver hisoblanadi. Xususan, oziq-ovqat sanoati, to’qimachilik sanoat, mashinasozlik va metalni qayta ishlash kabi sanoat tarmoqlari rivojlanishning asosi sifatida belgilangan. Mamlakatni rivojlantirishshning keyingi bosqichiga o’tish tarkibiy o’zgarishlarni va innovatsion rivojlanishni talab etadi, bularni amalga oshirish bilan esa O’zbekistonni rivojlangan mamlakatlar guruhiga kirib borishiga zamin yaratiladi. O’tgan 20 yil mobaynida O’zbekistonda asosiy e’tibor qishloq xo’jaligidan asta sekin yuqori qo’shimcha qiymatga ega bo’lmagan xom-ashyo va yarim-tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga yo’naltirildi, natijada esa mamlakatning rivojlanish (o’sish) modeli diversifikatsiyalandi. Ushbu holatda o’sish asosan kapital jamg’arishga asoslangan bo’lib, inson kapitalining sifati va jami omil unumdorligi kabi ko’rsatkichlar (tushunchalar) nisbatan ahamiyatsiz edi. Investitsiyalar sanoatning ustuvor tarmoqlariga, asosan, kapital va energiya sig’imi yuqori bo’lgan tarmoqlarga yo’naltirilgan bo’lib, ushbu vaziyatda xom-ashyoning jahon narxlaridagi ijobiy tendentsiyalaridan samarali foydalanilgan. Natijada, mehnat sig’imi yuqori bo’lgan, ekologik jihatdan toza sanoat tarmoqlari, Shuningdek, mikroiqtisodiyot va sanoatdagi kichik xususiy korxonalar rivojlanmadi. O’z navbatida, amal qilgan o’sish modeli samarali va yuqori ish haqini ta’minlovchi barqaror ish o’rinlarini yaratishni chekladi. Yuzaga kelgan salbiy natijalarni bartaraf etish, sanoat korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatiga doir xatarlarni kamaytirish hamda sanoatni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosatining samaradorligini oshirish maqsadida iqtisodiyotni modernizatsiyalash bo’yicha yangi davlat siyosati belgilab olindi. 2015 yilda Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tomonidan respublikani iqtisodiy rivojlantirishning uzoq muddatli maqsadlariga erishish uchun iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida tayanilishi lozim bo’lgan O’zbekistonning ustuvor tarmoqlarini aniqlash bo’yicha tadqiqot o’tkazildi. Ushbu tadqiqot taniqli iqtisodchilar Dj.Lin va S.Mong tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o’sishni ta’minlash uchun sanoat tarmoqlarini aniqlash va ular faoliyatini yengillashtirish maqsadida ishlab chiqilgan usulga asosan shakllantirilgan. Iqtisodchi olimlar tomonidan shakllantirilgan tadqiqot usuli uzoq davr mobaynida yuqori va barqaror iqtisodiy o’sish ko’rsatkichlarini namoyon etgan mamlakatlarning tajribalariga asoslangan. Ushbu mamlakatlar tajribasiga ko’ra, mamlakatda ma’lum bir tarmoqni rivojlantirish uchun yetarli shart-sharoit bo’lmasa yoki ushbu tarmoqni

yetarlicha rivojlantirgan mamlakatlar kabi ustunlik mavjud bo’lmasa mamlakatning sanoatni rivojlantirish uchun olib borgan siyosati muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Xususan, O’zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish yo’nalishlarini hamda mamlakat sanoatining ustuvor tarmoqlarini aniqlash uchun amalga oshirilgan tadqiqot natijalariga ko’ra O’zbekiston to’qimachilik, charmpoyabzal, oziq-ovqat, bolalar o’yinchoqlari va boshqa plastmassa mahsulotlarini ishlab chiqarish, sport jihozlari, qurilish materiallari kabi yuqori mehnat sig’imini talab qiluvchi tarmoqlarni rivojlantirishni jadallashtirishi lozim. O’tgan davrda Respublikaning rivojlanish strategiyasi asosan kapital va resurs sig’imi yuqori bo’lgan sanoat tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan bo’lib, mehnat sig’imi yuqori bo’lgan sanoat tarmoqlarining rivojlanishi esa e’tibordan chetda qolgan. Natijada, ko’proq ish o’rinlarini yaratish imkoniyati mavjud bo’lmagan. Shuning uchun, industrial va innovatsion rivojlanishga o’tishda ishlab chiqarish jarayonida ham mehnatning ham kapitalning o’zaro faoliyatini ta’minlaydigan to’qimachilik sanoatini rivojlantirishga urg’u bergan holda, barcha e’tiborni tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishga qaratish lozim. Bu esa o’z navbatida, barcha mavjud tarmoqlar o’rtasida o’zaro integratsiyani talab etadi (masalan, neft-kimyo sanoatidan boshlab sun’iy kimyoviy tolani ishlab chiqarishgacha).

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Davlyatova, G. M., & Abdullaeva, S. H. (2020). Economic perspectives of using the model" UNIVERSITY 3.0" in the education system of Uzbekistan. Экономика и бизнес: теория и практика, (2-1).

2. Davlyatova, G. M., & Kurpayanidi, K. (2020). Marketing as the main factor in introducing innovative products to the market. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. Volume: 10, Issue, (5), 430.

3. Davlyatova, G. M. (2022). Jadidlar qarashlarida ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar va ularning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi o’rni. Nazariy va amaliy tadqiqotlar xalqaro jurnali, 2 (4), 16-34. doi: 10.5281/zenodo.6656676 4. Ivanovich, K. K. (2020). About some questions of classification of institutional conditions determining the structure of doing business in Uzbekistan. South Asian Journal

YALPI TALAB - YALPI TAKLIF MODELIGA KIRISH

Saydakbarova Madinaxon Anisbekovna
TDIU, Andijon fakulteti o’qituvchisi
Shuhratbekov Sohibjon Qahramonjon o’g’li
2-kurs ATT 70/22 guruh talabasi

Annotatsiya: Biz bu yerda yalpi talab va yalpi taklif modellariga ta’luqli omillar bilan tanishamiz va qayday tasir ko‘rastishini ko‘ramiz.